Gopatshoh haqida eshitganmisiz?

Zardushtiylik dinining asosiy xudolaridan tashqari hayot manbai hisoblangan har bir narsaning o’z ilohi bo’lgan. Masalan, suv ilohasi “Anaxita”, yorug’lik va urush ilohi “Mitra”, chorvadorlar ilohi “Gopatshoh”. Gopatshoh ko’pincha yarim boshi odamniki bo’lgan sigir qiyofasida tasvirlangan. Tadqiqotchilar aniqlashicha, hatto XIX asrgacha O’rta Osiyoda ayniqsa, Xiva xonligida sigir hosildorlik mo’l-ko’lchilik ramzi hisoblanib, har yil bahor oyi boshlanishi bilan yuqori davlat amaldorlari, bu yil sersuv kelishi, mo’l-ko’lchilik bo’lishi uchun Amudaryoga sigirni qurbonlik qilishgan ekan. Shuningdek, Gopatshoh so’zining birinchi bo’g’ini “Go” hind-yevropa tillar oilasiga kiruvchi fors-tojik tillaridagi “Gou” – sigir so’ziga yaqin ekanligiga e’tibor qaratishgan. Darhaqiqat, ushbu so’z ayrim turkiy tillardagi “Govmish” so’ziga yaqinligi ham e’tiborga loyiq.



Rasmdagi ushbu noyob haykalcha Xorazm viloyatining Shovot tumani hududidan topilgan bo’lib, hozirda Xorazm Ma’mun akademiyasi muzeyida saqlanmoqda.